

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

AZIMOVA SAYORAXON GULAMJANOVNA

**ERKAKLAR USTKI TRIKOTAJ KIYIMLARINI RESURS
TEJAMKOR TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH TADQIQI**

05.06.04 - Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical science**

Azimova Sayoraxon Gulamjanovna

Erkaklar ustki trikotaj kiyimlarini resurs tejamkor texnologiyasini ishlab
chiqish tadqiqi. 3

Азимова Саёрахон Гуламжановна

Исследование по разработке ресурсосберегающей технологии
производства мужской верхней одежды. 27

Azimova Sayoraxon

A study on the development of a resource-efficient technology for
men’s outerwear. 49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works. 52

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

AZIMOVA SAYORAXON GULAMJANOVNANING

**ERKAKLAR USTKI TRIKOTAJ KIYIMLARINI RESURS
TEJAMKOR TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH TADQIQI**

05.06.04 - Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.PhD/T4490 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ntsuz.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pulatova Saboxat Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Aripdjanova Dilafuz Uktamovna
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "02" may soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info @ntsuz, Namangan to'qimachilik sanoat instituti 1-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan to'qimachilik sanoati instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 39-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "19" aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil "06" yanvardagi № 36-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda trikotaj to‘qimalarini tahlil qilish orqali turli-tuman to‘qimalarni o‘rganish, trikotaj to‘qimalaridan yangi dizaynga ega bo‘lgan tikuv buyumlarini ishlab chiqish, aralash tolali trikotaj to‘qimalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda shakllanib qolgan tikuv buyumlari assortimentini kengaytirish, lastik to‘qimalari asosida detallar soni kamaytirilgan erkaklar ustki kiyimlarini ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Consumer Market Insights¹ ga ko‘ra, dunyo miqyosida erkaklar kiyimlari daromadi 2023-yilda kiyim-kechak daromadining 32 foizini tashkil etgan. 2023-yilda jahon bo‘yicha daromad 555,25 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va 2029-yilga kelib bu ko‘rsatkich 657 milliard AQSh dollariga oshishi kutilmoqda. Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, trikotaj to‘qimasi hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini jadal rivojlantirish hamda ularning sifatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mavjud xom ashyo bazasidan samarali foydalangan holda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida Xom ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini yanada jadallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, erkaklar ustki kiyimlarini ishlab chiqarishda turli zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda turli yoshdagi erkaklar uchun mos kiyim dizayn-loyihasini yaratish, qadriyatlarni o‘rganish orqali an‘anaviy uslubidagi yangi dizaynga ega bo‘lgan erkaklar ustki trikotaj kiyimlarini resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, erkaklar ustki kiyimlarini ishlab chiqarish uchun trikotaj mahsulotlarini loyihalashda muhim bo‘lgan to‘qimaning tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganish, trikotaj buyumlarining konstruksiyalarini gazlama xossalari majmuasi (ВДМТИ, ЦОТШЛ) asosida ishlab chiqish, ikkinchi guruh cho‘zilish darajasiga ega bo‘lgan ustki trikotaj mahsulotlarini gradatsiya usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, turli tana o‘lchamlariga ega bo‘lgan erkaklar uchun mos kiyimlar ishlab chiqarishda resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish, turli millatlar va madaniyatlarning ehtiyojlariga mos kiyim dizaynlarini yaratish kabi yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tikuv-trikotaj sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tikuv-trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish, sanoat tarmoqlariga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida², jumladan, «“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya

¹ <https://www.statista.com/study/48857/men-s-apparel-market-data-and-analysis/>

² «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni

samaradorligini 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini, jumladan, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish» bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, turli assortimentdagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan tikuv-trikotaj buyumlarining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi texnologik parametrlarni o'rganish, yaratilayotgan yangi konstruksiyalarni ishlab chiqarishga faol joriy qilish, tabiiy hamda aralash xom ashyo tarkibidan iborat trikotaj to'qima va ulardan turli-xil sifatli kiyimlar ishlab chiqarish hamda ularni eksport qilishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 maydagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-71-son farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-2-son Farmoni, 2022 yil 21 yanvardagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-53-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turli trikotaj to'qimalarini tahlil qilish, tikuv buyumlari assortimentini kengaytirish, trikotaj to'qimalarini o'rganish orqali shakl saqlash xususiyati yuqori buyumlarni ishlab chiqish hamda yangi tuzilishga ega bo'lgan ikki qatlamli hosilali lastik to'qimalarini olish usullarini yaratish, yuqori elastik to'qimalarni to'qishda iplarning uzayishini tahlil qilish, to'qimachilik xom ashyo bazasini rivojlantirish, to'qimalardagi iplarning deformatsion xususiyatlari va ulardan kelib chiqib, tikuv-trikotaj tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Linda Welters (AQSh), G.Mentges (Germaniya), Takaxari (AQSh), Н.Г.Москоленко, Г.П.Старкова, А.С.Далидович, В.А.Усенко, К.Г.Гущина, В.А.Зиновьева, Л.А.Карпова, С.Б.Катаева (Rossiya) va boshqalar.

Xom ashyoni qayta ishlash, tikuv-trikotaj tayyor mahsulot turini kengaytirish, texnologiyalarni takomillashtirish va loyihalashga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: M.M.Mukimov, N.Xanxadjayeva, I.G.Shin, N.N.Nabidjanova, N.B.Maqsudov, A.B.Qosimova va boshqalar. Olib

borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida xom ashyo sarfi kam bo'lgan yangi ikki qatlamli va aralash trikotaj to'qimalarining tuzilishi va olish usullarini, turli tolaviy tarkibdagi trikotajning shakl saqlashini eksport baholash usuli, sport yo'nalishidagi an'anaviy kiyimlardan yuqori elastik va issiqlik saqlash xususiyati bilan ajralib turuvchi yaxlit to'qilgan, qomatga zich yopishgan buyumlarni uzluksiz loyihalash masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan bir qatorda, tikuv-trikotaj korxonalaridagi mavjud yangi to'quv dastgohlarining imkoniyatlaridan foydalanib, shaklbarqaror ustki trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish, aralash tolali ustki trikotaj to'qimalari hamda tabiiy charm mahsulotlarini bichish jarayonidagi qiyqimlardan samarali foydalanish, erkaklar kardigani yangi dizayn - loyihasini ishlab chiqish, erkaklar shaklbarqaror pidjagining resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagani aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan to'qimachilik sanoati instituti ilmiy tadqiqot ishlarining rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Erkaklar shaklbarqaror ustki trikotaj kiyimlarini resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkaklar ustki trikotaj kiyimlarining resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha adabiyotlar, internet ma'lumotlari, xorijiy hamda Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish;

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan tikuv-trikotaj korxonalaridagi mavjud yangi to'quv dastgohlarining imkoniyatlaridan foydalanib, lastik to'qima tuzilishi asosida shaklbarqaror ustki trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish;

aralash tolali ustki trikotaj to'qimalari hamda tabiiy charm mahsulotlarini bichish jarayonidagi qoldiqlardan samarali foydalanib, noan'anaviy usulda "to'n" bichimidagi erkaklar kardigani yangi dizayn - loyihasini ishlab chiqish;

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan aralash tolali ustki trikotaj to'qimalari hamda tabiiy charm mahsulotlarini bichish jarayonidagi matolardan samarali foydalanib, iste'molchining talab va ehtiyojidagi qulay, hamyonbop, mentalitetimizga mos dizayndagi erkaklar shaklbarqaror pidjagining resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish;

erkaklar ustki kiyimlarni tikish jarayonida choklar mustahkamligini matematik model asosida nazariy tadqiq etish;

ishlab chiqarilgan erkaklar ustki kiyimi asosida tanaga yarim yopishgan va to'g'ri bichimli kiyim turlari, ya'ni to'n va pidjak bichimidagi hamda kapyushonli kardiganlarning dizayn-loyihalari bo'yicha marketing tadqiqotlari olib borish;

pidjak va to'n bichimidagi, shuningdek, kapyushonli kardigan model qatorlari asosida CLO 3 dasturida erkaklar to'ni, bir bortli pidjak hamda kapyushonli kardigan eskiz model namunalarini ishlab chiqish;

ВДМТИ (Всесоюзный Дом Моделей трикотажных изделий) metodikasi bo'yicha milliy "to'n" bichimini erkaklar ustki trikotaj kiyimiga ilk bora qo'llab, yangi "kardigan" loyiha – konstruksiya chizmalarini ishlab chiqish;

mahsulot ishlab chiqarishda charm qoldiqlaridan samarali foydalanish hamda detallar sonini kamaytirish asosida to‘n bichimidagi kardiganning yoqa qismini yaxlit modellashtirish;

tikish texnologik jarayonlarini kamayishi hisobiga olinishi mumkin bo‘lgan yillik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida erkaklar ustki trikotaj to‘qimalarining shaklbarqarorligi, mahsulotni loyihalashning ratsional parametrlari va resurstejamkor tikish texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini aralash tolali ustki trikotaj to‘qimalari hamda tabiiy charm mahsulotlarini bichish jarayonidagi qoldiqlardan samarali foydalanib, erkaklar ustki kiyimlarini resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish jarayonlarini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida trikotaj to‘qimalarining tajriba-sinov tahlili va matematik statistika, kiyimlarni loyihalash, shuningdek, resurstejamkor tikish texnologiyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

charm qoldiqlari va lastik to‘qima asosli import o‘rnini bosuvchi eksportbop, ikki tomonlama kiyishga mo‘ljallangan erkaklar ustki kiyim konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ilk bora milliy “to‘n” bichimini erkaklar ustki trikotaj kiyimiga qo‘llab, takomillashgan “kardigan” loyiha – konstruksiya chizmalari ishlab chiqilgan;

aralash tolali trikotaj to‘qimalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda, erkaklar ustki kiyimining resurstejamkor texnologiyasini texnologik ketma-ketlik sxemasi ishlab chiqilgan;

tikish jarayonida choklar sonini kamaytirish, vaqt sarfi va gazlamalarni tejash hisobiga biriktirma choklari berkitilgan ikki tomonlama kiyish uchun tavsiya etiladigan erkaklar to‘nining konstruktorlik yechimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari

erkaklar ustki kiyimiga bo‘lgan ehtiyoji asosida tanaga yarim yopishgan va to‘g‘ri bichimli kiyim turlari, ya‘ni to‘n va pidjak bichimidagi hamda kapyushonli kardiganlarning dizayn-loyihalari ishlab chiqilgan;

bichimi, shakli, bezagi hamda kiyim uzunligi e‘tiborga olingan holda 100 turdan oshiq erkaklar ustki kiyim model qatorlari ishlab chiqilgan;

pidjak va to‘n bichimidagi, shuningdek, kapyushonli kardigan model qatorlari asosida CLO 3 dasturida erkaklar to‘ni, bir bortli pidjak hamda kapyushonli kardigan eskiz model namunalari ishlab chiqilgan;

trikotaj detallarini biriktirish va ularning ochiq qirqimlariga texnologik ishlov berish jarayonida turli baxya va baxyaqatorlar hosil qilishda ipli biriktirish usulidan foydalanilgan;

erkaklar ustki trikotaj kiyim modelining resurstejamkor dizayn-loyihasi ishlab chiqilgan;

tabiiy charm qoldiqlaridan foydalanish hisobiga kiyimning biriktirma choklarini berkitish hamda estetikaviyligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, izlanishlarning

zamonaviy uslub va vositalardan foydalanilgan holda asosli o'tkazilganligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq, qiyosiy olingan natijalarning real iqtisodiy samaradorlik bilan ishlab chiqarishga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati detallar soni kamaytirilgan erkaklar ustki kiyim dizayn-loyihasi ishlab chiqilganligi, ilk bora milliy "to'n" bichimini erkaklar ustki trikotaj kiyimiga qo'llab, yangi "kardigan" loyiha – konstruksiya chizmalari ishlab chiqilganligi, erkaklar ustki kiyimining resurstejamkor texnologiyasi nazariy va amaliy tadqiq qilinganligi, ikki tomonlama kiyish uchun tavsiya etiladigan erkaklar ustki kiyim to'plamlari hamda konstruksiya chizmalari ishlab chiqilganligi hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan trikotaj ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud yangi to'quv dastgohlarining imkoniyatlaridan foydalanib, lastik to'qima tuzilishi asosida beshta variantdagi ustki trikotaj to'qimalari ishlab chiqilganligi va optimal variantdagi erkaklar assortimentini ishlab chiqarishga tadbiiq etilganligi, noan'anaviy usulda "to'n" bichimidagi erkaklar kardiganini yangi dizayn - loyihasi ishlab chiqilganligi, charm sanoati mahsulotlarini bichish jarayonidagi qoldiqlardan samarali foydalanib, erkaklar trikotaj pidjagining resurstejamkor texnologiyasi ishlab chiqilganligi hamda ularni tajribalar natijasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Erkaklar ustki trikotaj kiyimlarini ekspluatatsion ishonchligini oshirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

charm qoldiqlari va lastik to'qima asosli erkaklar milliy to'nini resurstejamkor texnologiyasini Namangan viloyatidagi "YANTEKS" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2024 yil 23 dekabrda №03/25-3462 son ma'lumotnomasi). Natijada erkaklar ustki kiyimiga tavsiya etiladigan astarlar bo'yicha o'tkazilgan so'rovdan astarsiz ustki kiyimlarga bo'lgan ehtiyoj eng yuqori 37%, trikotaj to'qimasiga bo'lgan ehtiyoj eng yuqori 49% hamda aralash tolali matolarga bo'lgan talab eng yuqori 37% ekanligi aniqlangan. Taklif etilgan "erkaklar to'n bichimidagi kardigan" ni ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni kamayishi hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 1 smenada 396 800 (uch yuz to'qson olti ming sakkiz yuz) so'mni, 1 oyda 20 633 600 (yigirma million olti yuz o'ttiz uch ming olti yuz) so'mni tashkil qilgan;

aralash tolali trikotaj to'qimalaridan erkaklar zamonaviy kardiganini "YANTEKS" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2024 yil 23 dekabrda №03/25-3462 son ma'lumotnomasi). Natijada erkaklar kardiganini yangi assortimenti yaratilishi hisobiga iste'molchilar talab va ehtiyoji qondirilgan hamda eksport salohiyatini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy

Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr etilgan, shundan 1 ta chet el ilmiy jurnalida hamda 3 ta respublika jurnallarida chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishni aprobatyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Erkaklarga tavsiya etilayotgan ustki kardiganlar asosan Italiya, Koreya, Xitoy, Turkiya va Rossiya Davlatlarida ishlab chiqarilib, Respublikamizga import yo'li bilan olib kirilmoqda. Ularning dizayni, to'qimasi, rangi, xom ashyo tarkibi, texnologik ishlov berilishi, o'lchami va turli mavsumlarga mo'ljallanishiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Dissertatsiyaning **“Aralash tolali ustki trikotaj to'qimalarining assortimenti, ularni ishlab chiqish holatining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida erkaklar ustki trikotaj kiyimlarining resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha adabiyotlar, internet ma'lumotlari, xorijiy hamda Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilganida, zamonaviy moda yo'nalishidagi ustki trikotaj assortimentiga erkaklarning ehtiyoji yildan-yilga ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Biroq, erkaklar ustki trikotaj tayyor mahsulotlari yurtimizga asosan xorijdan import yo'li bilan olib kirilayotganligi, buning natijasida mahsulotning tannarxi oshib ketayotganligi, shuningdek, Respublikamizda faoliyat olib borayotgan trikotaj korxonalarida mavjud zamonaviy dastgohlardan foydalanib, turli-tuman raqobatbardosh ustki trikotaj to'qimalari ishlab chiqarilishiga qaramay, ichki bozorlarimizda erkaklar ehtiyojidagi ustki kiyimlari yetarli emasligi aniqlangan.

Ushbu oldimizda turgan dolzarb muammolardan kelib chiqib, Namangan to'qimachilik sanoati institutining “Trikotaj texnologiyasi” kafedrasida qoshida tashkil etilgan trikotaj to'quv laboratoriyasidagi 12-klass “Long Xing” LXA-242 rusumli yassi ignadonli zamonaviy dastgohida 36% paxta + 64% akril, 100% akril, 94% akril + 6% spandeks, 26% paxta + 74% polyester, 49% akril + 51% polyester akril xom ashyo tarkibli ustki trikotaj namunalari ishlab chiqildi. Keyingi

bo‘limlarda ushbu namunalarning texnologik parametrlari, shuningdek, fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganib chiqib, optimal variantdagi trikotaj to‘qimalaridan erkaklar uchun ustki trikotaj kiyimlarini ishlab chiqarishni oldimizga maqsad va vazifa qilib belgilab olindi.

Dissertatsiyaning “**Charm va trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini tahlili hamda erkaklar ustki kiyimini nazariy tadqiqi**” deb nomlangan ikkinchi bobida hozirgi kunda erkaklar, ayollar va bolalarning ustki trikotaj tayyor mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari ortib borayotgani, Respublikamizning tikuv-trikotaj korxonalarida asosan bichish usulidan foydalanib ichki kiyimlar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Zamonaviy WONDERFULL fang trikotaj to‘quv mashinalari ustki kiyimning: yoqa, manjet, cho‘ntaklar, belbog‘larni va h.k. to‘qish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, avtomatda ustki kiyim uchun mo‘ljallangan mato va kuponlar ishlab chiqarish mumkin.

Trikotaj to‘qimalari tuzilishlari asosida ularni assortimentini kengaytirish, “Long Xing” LXA-242 rusumli (Xitoy) yassi ignadonli to‘quv mashinasining imkoniyatlaridan foydalanib, lastik asosidagi trikotaj to‘qima tuzilishining 5 ta varianti ishlab chiqildi.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, trikotajning yuza zichligi bo‘yicha 4-variant 337 gr/m² va 8-variant 343 gr/m², ya‘ni boshqa namunalarga nisbatan talab darajasidagi eng yaxshi ko‘rsatkichni berdi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Trikotajning yuza zichligi

Absolyut hajm zichligi asos to‘qima bilan solishtirilganida, quyidagilardan iborat bo‘ladi:

$$\Delta\delta = \delta_B - \delta = 163,7 - 147,8 = 16 \text{ mg/sm}^3 \quad (1)$$

$$\Delta\delta = \delta_B - \delta = 145,8 - 139,4 = 6,4 \text{ mg/sm}^3 \quad (2)$$


bu yerda: $\Delta\delta$ - absolyut hajmiy yengillik, mg/cm³;
 δ_B – asos to‘qimaning hajmiy zichligi mg/cm³;
 δ - tajribaviy to‘qimaning hajmiy zichligi mg/cm³.

Hajm zichligi bo‘yicha 4-variant 145,8 mg/sm³ va 5-variant 139,4 mg/sm³, boshqa namunalarga nisbatan yaxshi ko‘rsatkichni berdi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Hajm zichligi bo'yicha sifat ko'rsatkichi


Trikotajning qalinligi hajm zichligiga bog'liq bo'ladi. Hajm zichligi qancha yuqori bo'lsa, qalinlik shuncha ortib boradi. Qalinlikning juda oshib ketishi esa insonning tanasiga katta bosim berib, sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Trikotajning qalinlik bo'yicha sifat ko'rsatkichi

Erkaklar ustki kiyimlarida shaklbarqarorlikni ta'minlash uchun 2 va 3 - variantlar tanlab olindi.

Ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi ASTM D3511ga asosan tahlil qilinganda (30-60 ming/aylana) 4-variant 30 ming/aylana va 5-variant 28 ming/aylana bilan ustki kiyimga yaroqliligi aniqlandi (4-rasmga qarang).




4-rasm. Trikotajning ishqalanishga chidamlilik bo'yicha sifat ko'rsatkichi

Ustki kiyimlarni loyihalashda havoo'tkazuvchanlik o'ta muhim omil hisoblanmaydi. Havoo'tkazuvchanlik ko'rsatkichi ASTM D737-18 bilan taqqoslanganida, 1, 2 va 6-variant sifat ko'rsatkichlari boshqa variantlarga nisbatan yaxshi deb baholandi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Trikotajning havoo'tkazuvchanlik bo'yicha sifat ko'rsatkichi

Uzilishgacha cho'zilish bo'yicha fizik-mexanik ko'rsatkichlar tahlil qilinganida 2 va 5-variantlar standartga yaqin kelgani aniqlandi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Uzilishgacha cho'zilish sifat ko'rsatkichi

Turli assortimentdagi hayvon terilaridan olingan charmlari Davlat standartlari talablariga javob berishi maqsadga muvofiq. Quyidagi jadvalda qo'y terilaridan charm ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar keltirilgan (1- va 2-jadvallarga qarang).

1-jadval

Qo'y terilaridan olingan erkaklar pidjagi uchun charmlarning kimyoviy va fizik-mexanik xossalari

Ko'rsatkichlar	Belgilangan me'yor DST 940-81
Namlik miqdori, %	10-16
Xrom oksidi miqdori, % xrom bilan oshlashda	3,3
aralash oshlashda	0,6-2,0
Organik erituvchilar bilan ekstraksiya qilingan moddalar ulushi, %	3,7
10 MPA (kam emas) uzilishdagi mustahkamlik, %	0,8
10 MPA kuchlanishdagi uzayish, %	15-40

2-jadval**Tayyor charm mahsulotining kimyoviy xossalarini aniqlashda qo‘llanilgan standartlar**

Ko‘rsatkichlar	Me‘yoriy hujjatlar
Namlik miqdori	DST 938.1-67
Xrom oksidi miqdori	DST 938.3-77
Kul miqdori	DST 938.2-67
Organik erituvchilar bilan ekstraksiya qilingan moddalar ulushi	DST 938.5-68
Pishish harorati	DST R ISO 3380-2013

3-jadval**An’anaviy va tajribaviy usulda qo‘y terilaridan olingan charmlarining fizik-kimyoviy va mexanikaviy xossalari ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat varianti	Tajriba varianti	DS 940-81
1.	Namlik miqdori, %	10,9	13,5	10-16
2.	Kul miqdori, %	7,34	7,45	-
3.	Xrom oksidi miqdori, % xrom oshlashda aralash oshlashda	4,93	1,36	3,3 0,6-2
4.	Organik erituvchilar asosida ekstraksiyalangan moddalar miqdori, %	4,80	4,69	3,7
5.	10 MPa uzilishdagi mustahkamlik, %	2,0	1,3	1,3
6.	5 MPa kuchlanishdagi uzayish, %	32,0	40,8	15-40

Yuqorida keltirilgan tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki (3-jadvalga qarang), erkaklar ustki kiyimlarida foydalanish uchun materiallarida xrom oshlovchi miqdori 50% ga kamaytirilib inson salomatligi uchun tabiiy oshlovchi moddalar kiritilganligi ham an’anaviy oshlash usulidan qolishmaydigan, davlat standartlari talabiga javob beradigan charmlarni olish mumkinligi aniqlandi. Bunda namlik miqdorining nazorat charmlariga qaraganda yuqoriligi, tannidlarning namlikni tortish qobiliyati nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Eksploatatsion xossalardan kuchlanishdagi uzayishning 8,8% ortishi, oshlash jarayonida yog‘lovchi moddalarning kiritilishi orqali izohlash mumkin. Uzilishdagi mustahkamlik nazorat variantlariga nisbatan past bo‘lsada, ammo davlat

standartiga javob beradi. Bundan tashqari, tajriba namunalarda xrom oksidi miqdorining 3,57 % gacha kamayishiga ham erishildi, bu esa charmning pishish haroratini kamayishiga olib kelsada, ammo tarkibidagi xrom oksidi miqdorining kamayishi hisobiga, uning xavfsizlik darajasi oshishi bilan izohlanadi. Pishish

haroratining nisbatan past bo'lishi tannidlarga xos xususiyatlaridan bo'lib, bu astarlik charmlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Choklar mustahkamligini matematik model asosida nazariy tadqiq etishda ta'sir etuvchi omillar sifatida: kiruvchi omillar X_1 – Tikuv mashinasining bosh valining aylanish tezligi, (ayl/min); X_2 – Tikuv baxya qadami, (mm); X_3 – Trikotaj to'qimasining qalinligi, (mm) ko'rsatkichlari olingan. Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash quyida keltirilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlari

Omillar nomi va belgilanishi		O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oraliq'i
		-1	0	+1	
Tikuv mashinasining bosh valining aylanish tezligi, ayl/min	X_1	1700	2600	3500	900
Tikuv baxya qadami, mm	X_2	3	3,5	4	0,5
Trikotaj to'qimasining qalinligi, mm	X_3	2.5	3.5	4.5	1

Regressiya koeffitsiyentlarini aniqlashda Student, matematik modelning muvofiq yoki muvofiq emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonlaridan foydalanildi.

Chiquvchi omil sifatida Y_1 -Trikotaj to'qimasi va charm mahsulotlari choklarining pishiqligi (N) olingan.

5-jadval

Markaziy nokompozitsion tajriba matritsasi

№	Omillar			x_1x_2	x_1x_3	x_2x_3	x_1^2	x_2^2	x_3^2	Y_1	$S_u^2(Y_1)$
	x_1	x_2	x_3								
1	+	+	0	+	0	0	+	+	0	2,00	0,700
2	+	-	0	-	0	0	+	+	0	4,00	0,051
3	-	+	0	-	0	0	+	+	0	4,50	0,112
4	-	-	0	+	0	0	+	+	0	4,30	0,076
5	+	0	+	0	+	0	+	0	+	1,50	0,492
6	+	0	-	0	-	0	+	0	+	4,50	0,026
7	-	0	+	0	-	0	+	0	+	1,60	0,390
8	-	0	-	0	+	0	+	0	+	5,00	0,007
9	0	+	+	0	0	+	0	+	+	3,00	0,078
10	0	+	-	0	0	-	0	+	+	2,50	0,608
11	0	-	+	0	0	-	0	+	+	3,10	0,032
12	0	-	-	0	0	+	0	+	+	3,80	0,270
13	0	0	0	0	0	0	0	0	0	4,00	0,518
14	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3,10	0,032
15	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3,15	0,031

TOT natijalaridan ma'lum bo'ldiki, o'rganilayotgan jarayon yuqoriroq darajali tenglama bilan ifodalanadi (5-jadvalga qarang). Shuning uchun ikkinchi darajali regression matematik modelni olish uchun boshqa usullarga nisbatan birmuncha soddaroq va qulay hamda yengil sanoati texnologik jarayonlari tadqiqotlarida keng qo'llanilayotgan markaziy nokompozitsion tajriba (MNKT) tanlandi va amalga oshirildi.

Tajriba natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi darajali regression ko'p omilli matematik model topilgan. Ushbu tajriba natijasida quyidagi umumiy ko'rinishdagi regression modelni olish mumkin:

$$Y_R = b_0 + \sum_{i=1}^M b_i x_i + \sum_{\substack{i=j=1 \\ j \neq 1}}^n b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^M b_{ii} x_i^2$$

yoki tajribada uchta omil qatnashayotgani uchun yuqoridagi ifoda quyidagi ko'rinishni oladi:


$$Y_R = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3 + b_{12} x_1 x_2 + b_{13} x_1 x_3 + b_{23} x_2 x_3 + b_{11} x_1^2 + b_{22} x_2^2 + b_{33} x_3^2$$

Tenglamada: $b_0 \dots b_1 \dots$ - regressiya koeffitsiyentlari, x_1, x_2, x_3 - omillarning kodlangan qiymati.

Trikotaj to'qimasi va charm mahsulotlari choklar pishiqligini matematik modelini tahlil qilishda chiqish parametrining xususiyatlarini aniqlash uchun tuzilgan tenglama uch o'lchovli bo'lgani uchun tahlildagi kirish omillaridan biri $X_i = 0$ (markaziy holat) deb qabul qilinadi va ikki o'lchovli grafik modellarni 3 ta tenglamaga o'zgartirish yo'li bilan tuziladi.

Y_1 -gi bo'yicha regression modellarni trikotaj va charm mahsulotlarining choklar mustahkamligi ($x_3=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olinadi.

$$Y_1 = 3,42 + (-0,43)x_1 + (-0,4)x_2 + (-0,55)x_1 x_2 + 0,09x_1^2 + 0,07x_2^2$$




7-rasm. Trikotaj va charm mahsulotlarining choklar mustahkamligi (sN) ($X_3=0$) bo'lgandagi kvadratik grafigi

7 - rasmdagi grafikdan ko'rish mumkinki, ($X_3=0$) bo'lganda, bosh valning aylanish tezligi ayl/min (X_1) oshib borgani sari, trikotaj va charm mahsulotlarining

choklar mustahkamligi $sN(Y_1)$ ko'rsatkichi pasaymoqda. Bosh valning aylanish tezligi 1700 ayl/min, trikotaj to'qimasining qalinligi 3,5mm bo'lganida, trikotaj va charm mahsulotlarining choklar mustahkamligi eng yuqori qiymatga erishmoqda (7-rasmga qarang).

Y_1 bo'yicha regression modellarni trikotaj va charm mahsulotlarining choklar pishiqligi ($x_1=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olinadi.




8-rasm. Trikotaj va charm mahsulotlarining choklar mustahkamligi (sN) ($X_1=0$) bo'lgandagi kvadratik grafigi

8-rasmdagi grafikdan ko'rish mumkinki, ($X_1=0$) bo'lganda, baxya qadami mm (X_1) oshib borgani sari trikotaj to'qimasi va charm mahsulotlarining choklar pishiqligi $sN(Y_1)$ ko'rsatkichi pasaymoqda. Baxya qadami 3-3,5 mm bo'lganda, trikotaj to'qimasining qalinligi 2,5 mm bo'lganida trikotaj to'qimasining choklar pishiqligi eng yuqori qiymatga erishmoqda (8-rasmga qarang).

Y_1 bo'yicha regression modellarni trikotaj va charm mahsulotlarining choklar pishiqligi ($x_2=0$) bo'lgandagi tenglama qayta yozib olinadi:

$$Y_1 = 3,42 + (-0,43)x_1 + (-0,83)x_3 + 0,09x_1^1 + (-0,21)x_3^3$$

9-rasmdagi grafikdan ko'rish mumkinki, ($X_2=0$) bo'lganida, trikotaj to'qimaning qalinligi mm (X_3) oshib borgani sari, trikotaj va charm mahsulotlarining choklar pishiqligi $sN(Y_1)$ ko'rsatkichi pasaymoqda.



9-rasm. Trikotaj va charm mahsulotlarining choklarini pishiqligi (sN) ($X_2=0$) bo'lgandagi kvadratik grafigi

Trikotaj to‘qimaning qalinligi 2,5-3,5 mm bo‘lganida, bosh valning aylanish tezligi 1700–2600 bo‘lganida trikotaj va charm mahsulotlarining choklar pishiqligi eng yuqori qiymatga erishmoqda (9- rasmga qarang).

Dissertatsiyaning **“Trikotaj to‘qimalarining shaklbarqarorligini inobatga olgan holda erkaklar ustki kiyim dizayn-loyihasini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida erkaklar ustki trikotaj mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari marketing so‘rovnomasi asosida o‘rganib tahlil qilinganida ichki bozorlarda asosan 100% sintetik tolali ayollar kamzullari keng joy egallagani ma’lum bo‘ldi.

Erkaklar ustki kiyimlariga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganilganida, nafaqat yoshlar, balki yoshi katta erkaklar ham to‘g‘ri bichimli, old bo‘lagi taqilmasiz kardiganlar (41%) ga ehtiyojlari yuqoriligi aniqlandi (10-rasmga qarang).



10-rasm. Ustki kiyimga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatkichlari

Matolarga bo‘lgan ehtiyoj o‘rganilganda trikotaj to‘qimasi 49% eng yuqori ko‘rsatkichni berdi. Charm matolarga ehtiyoj 27% ni tashkil etdi (11-rasmga qarang).

Marketing tadqiqotlar natijasi va ularning tahlili asosida akril tolali trikotaj to‘qima va charm qiyqimlarining uyg‘unligida to‘n va pidjak bichimidagi hamda kapyushonli erkaklar kardiganlarining dizayn-loyihasini ishlab chiqish maqsad qilib olindi.




11-rasm. Matolarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatkichlari

Erkaklar ustki trikotaj buyumlarining eskiz modellarini ishlab chiqish uchun tavsiya etiladigan model qator namunalarini tuzishda ВТИ (верхние трикотажные

изделия) metodi asosida trikotaj to‘qimalarining turi, trikotaj va charm matolar uyg‘unligi, kiyimning uzunligi, kengligi va bichimidan foydalanildi.

Erkaklar ustki trikotaj buyumlarining eskiz model namunalarini ishlab chiqish uchun olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida lastik trikotaj to‘qimasi va charm qiyqimlaridan foydalanib, kiyim shaklining konstruktiv-unifikatsiyalangan andazalar qatorlari uchun dastlabki ma’lumot sifatida qabul qilinadigan bir qancha tuzilmalar, kiyim shaklini xosil qilishdagi ko‘proq ma’lumot beruvchi elementlar ajratib olindi (12-rasmga qarang).

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, CLO 3 dasturining keng imkoniyatlari hamda lastik trikotaj to‘qimalaridan ishlab chiqilgan asosiy siluet shakllari (model qatori) dan foydalanib, erkaklar yangi ustki trikotaj kiyim namunalarining (to‘n bichimidagi kardigan, pidjag va kapyushonli kardigan) eskiz model namunalari ishlab chiqildi (13-, 14-, 15-rasmlarga qarang).



12-rasm. Lastik trikotaj to‘qimasidan ishlab chiqilgan asosiy siluet shakllari



13-rasm. Erkaklar to‘n bichimidagi kardigan: a) old tomondan ko‘rinishi, b) yon tomondan ko‘rinishi, c) orqa tomondan ko‘rinishi



a

b

c

14-rasm. Bir bortli pidjak bichimidagi kardigan: a) old tomondan ko‘rinishi, b) yon tomondan ko‘rinishi, c) orqa tomondan ko‘rinishi



a

b

c

15-rasm. Kapyushonli kardigan: a) old tomondan ko‘rinishi, b) yon tomondan ko‘rinishi, c) orqa tomondan ko‘rinishi

Milliy to‘n bichimidagi kardiganni shaklbarqaror, yengil, yechib-kiyishga qulay, arzon va tejamkor texnologiyada ishlab chiqarilganini inobatga olib, nafaqat kundalik va uy kiyimi sifatida erkaklarga tavsiya etish, balki uning estetikaviyligini oshirib (turli naqshlar, bezaklar, jiyaklar va applikatsiyalar bilan bezash) “kuyov to‘ni” sifatida ham iste‘mol qilish mumkin. Mazkur modeldagi bezak choklar to‘nning ikki tomonlama kiyish uchun zamsha bilan bezatildi.

Dissertatsiyaning **“Erkaklar ustki trikotaj kiyimlarining ratsional konstruksiyasi va resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida charm yarim tayyor mahsulotining resurslar bo‘yicha umumiy tahlili (2022 yil, noyabr oyida) “IDEAL ORZU TEKSTIL” MCHJ sharoitida erkaklar kurtkasini bichishdan so‘ng teri qiyqimlarining tajriba saralanishi asosida amalga oshirilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Trikotajni charm bilan uyg‘unlashgan zamonaviy assortimentini kengaytirishda terining yarim tayyor mahsulotiga ishlov berishning yangi innovatsion texnologiyalari, charmni kiyim pardozi uchun qo‘llash, trikotaj mahsulotlarining asosiy detallarini qismlarga ajratish hamda shu qismlarda charmdan tejamkor foydalanishning ahamiyati katta. Trikotaj charm bilan


uyg'unlashgan usulini ishlab chiqishda charmlardan asosan bezak berish va biriktirma choklarni berkitish maqsadida keng qo'llanilgan.

Milliy to'n bichimidagi kardiganing ort bo'lak yoqa o'mizi, old bo'lak plankasi, yengning mushak va bilak aylanasi, old va ort bo'lak yon hamda yeng biriktirma choki, etak qirqimiga (choklarni berkitish va ikki tomonlama kiyishni ta'minlash maqsadida tabiiy zamshadan foydalanilgan (13-rasmga qarang, erkaklar to'n bichimidagi kardigan).


Erkaklar ustki kiyimlarini ishlab chiqishda qo'sh ignali Brother T-8452C-405 rusumli hamda DOSO D5-2 tikuv mashinalaridan foydalanilgan.

Erkaklar ustki kiyimi konstruksiyasi ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanilayotgan ВДМТИ metodikasi asosida ishlab chiqildi (16-19-rasmlarga qarang).


ВДМТИ metodikasiga ko'ra, birinchi navbatda erkaklar ustki kiyimlarini loyihalashda qomatning o'lcham va qo'shimchalar hisobi asosida konstruksiya chizmalari ishlab chiqiladi. Ikkinchi navbatda esa trikotaj to'qimalarining deformatsiya hisobi ishlab chiqiladi.



16-rasm. Erkaklar kardiganining ort bo'lak, old bo'lak va yeng asos konstruksiya chizmasi.




17-rasm. To'n bichimidagi kardiganni konstruktiv modellashtirish
a) ort bo'lak; b) old bo'lak




20-rasm. Ikki tomonlama yopiq qirqimli qoplama chok.

Yopiq qirqimli biriktirma choklar pidjak tipidagi kardiganning qaytarma yoqasini, kapyushonli kardigan yoqa o‘miziga kapyushonni biriktirib tikishda hamda yeng uchiga manjetni biriktirib tikishda qo‘llanildi (21-rasmga qarang).



21-rasm. Yopiq qirqimli biriktirma chok: 1-biriktirib tikish; 2-bostirib tikish.

Zich chok turi trikotaj chetki qirqimlarini titilishdan saqlash hamda ikkita detalni o‘zaro tutashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Zich choklar aksariyat ichki trikotaj mahsulotlariga ishlov berishda keng qo‘llaniladi (22-rasmga qarang).



22-rasm. Zich chok.

Erkaklar shaklbarqarorligi yuqori bo‘lgan hamda yangi dizayndagi ikki tomonlama kiyish uchun mo‘ljallangan “to‘n” bichimidagi kardiganni ishlab chiqish uchun Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumanida faoliyat yuritayotgan “YANTEKS” MCHJ korxonasida tadqiqot olib borildi.

6-jadval

Erkaklar ustki kiyimi uchun ketgan xom ashyo sarfi

Korxonada ishlab chiqarilayotgan erkaklar ustki kiyimi	Miqdori, (gr)	Narxi, so‘m	Tavsiya etilgan “to‘n” bichimidagi kardigan	Miqdori, (gr)	Narxi, so‘m
Trikotaj to‘qimasi (gr)	840	63000	Trikotaj to‘qimasi	680	56000
Ribana (m)	60	9000	Zamsha	230	3600
Jami	900	72000	Jami	910	59600

Erkaklar “to‘n” bichimidagi kardiganni ishlab chiqarishdagi unumdorligi quyidagi jadvallarda aks ettirilgan (6- va 7-jadvallarga qarang).

7-jadval

“Yangi to‘n bichimidagi kardigan”ni iqtisodiy samaradorligi

Xarajat moddalari miqdori	Mahsulot soni	Mavjud erkaklar ustki kiyimi	Yangi “to‘n” bichimidagika rdigan	Foyda
	donada	Summasi (so‘mda)		So‘mda
Bittamahsulot uchun tannarxi	1	72000	59600	12400
1ta smenadagi	32	2.304.000	1.907.200	396.800
Bir kundagi	64	4.608.000	3.814.400	793600
Bir oydagi	1664	119.808.000	99.174.400	20.633.600

Jumladan, dam olish kunlari hisobga olinmasa, bir yil davomida o‘rtacha 300 kun: bir smenada 8 soat, ikki smenada 16 soat birligida hisoblanadi. Ya’ni bir smena ish vaqtida ishlab chiqarilgan mahsulotlar orasidagi farqi korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulot uchun 2 304 000 so‘m sarflanmoqda, taklif etilayotgan “to‘n” bichimidagi kardigan uchun 1 907 200 so‘m sarflandi va taklif etilayotgan mahsulot uchun 20 633 600 so‘m foyda olinmoqda.

Shaklbarqaror mahsulot ishlab chiqarishda charm qiyqimlaridan samarali foydalanish hamda detallar sonini kamaytirish maqsadida taklif etilayotgan to‘n bichimidagi kardiganning yoqa qismi yaxlit modellashtirilgan va shu orqali

texnologik jarayon ham kamayishi hisobiga 1 smenada 396.800 mablag‘ tejaldi hamda yillik ishlab chiqarishdan olingan samaradorlikning umumiy hisobi bo‘yicha taklif etilgan “erkaklar to‘n bichimidagi kardigan” ni ishlab chiqarishda 1 oyda 20 633 600 so‘m samaradorlikka erishildi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Erkaklar ustki trikotaj kiyimlarining resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha adabiyotlar, internet ma’lumotlari, xorijiy hamda Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilganida, zamonaviy moda yo‘nalishidagi ustki trikotaj assortimentiga erkaklarning ehtiyoji yildan-yilga ortib borayotganligi ma’lum bo‘ldi. Biroq, erkaklar ustki trikotaj tayyor mahsulotlari yurtimizga asosan xorijdan import yo‘li bilan olib kirilayotganligi, buning natijasida mahsulotning tannarxi oshib ketayotganligi, shuningdek, Respublikamizda faoliyat olib borayotgan trikotaj korxonalarida mavjud zamonaviy dastgohlardan foydalanib, turli-tuman raqobatbardosh ustki trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarilishiga qaramay, ichki bozorlarimizda erkaklar ehtiyojidagi ustki kiyimlari yetarli emasligi aniqlandi.

2. Namangan to‘qimachilik sanoati institutining “Trikotaj texnologiyasi” kafedrasida qoshidagi tajriba sinov laboratoriyasida mavjud zamonaviy yassi ignadonli to‘quv dastgohining imkoniyatlaridan foydalanib, lastik to‘qima tuzilishi asosida beshta variantdagi ustki trikotaj to‘qima namunalari olindi.

3. Yuqoridagi dolzarb muammolar yechimini topish maqsadida oldimizga qo‘yilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida II, IV va V variantlarning sifat ko‘rsatkichlari belgilangan standartlarga mosligini inobatga olib, erkaklar ustki kiyimlarini ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

4. Standart talablarga muvofiq olingan namunalardan ustki trikotaj uchun eng muhim omillar (shaklbarqarorlik, ishqalanishga chidamlilik, qaytar va qaytmas deformatsiyalar) ni inobatga olib, erkaklar ustki kiyim dizayn-loyihasi ishlab chiqildi.

5. Erkaklar ustki kiyimlarni tikish jarayonida choklar mustahkamligini matematik model asosida nazariy tadqiq etildi.

6. Respondentlar o‘rtasida olib borilgan marketing tadqiqotlar natijasi va ularning tahlili, shuningdek, erkaklar ustki kiyimiga bo‘lgan ehtiyoji asosida tanaga yarim yopishgan va to‘g‘ri bichimli kiyim turlari, ya‘ni to‘n va pidjak bichimidagi hamda kapyushonli kardiganlarning dizayn-loyihalari ishlab chiqildi.

7. Bichimi, shakli, bezagi hamda kiyim uzunligi e‘tiborga olingan holda 100turdan oshiq erkaklar ustki kiyim model qatorlari ishlab chiqildi.

8. Pidjak va to‘n bichimidagi, shuningdek, kapyushonli kardigan model qatorlari asosida CLO 3 dasturida erkaklar to‘ni, bir bortli pidjak hamda kapyushonli kardigan eskiz model namunalari ishlab chiqildi.

9. Trikotaj to‘qimaga charm qoldiqlarini uyg‘unlashtirish hisobiga choklar berkitildi, kiyimning estetikaviyligini oshishiga hamda ikki tomonlama kiyishga erishildi.

10. ВДМТИ методikasi bo'yicha ilk bora milliy "to'n" bichimini erkaklar ustki trikotaj kiyimiga qo'llab, yangi "kardigan" loyiha – konstruksiya chizmalari ishlab chiqildi.

11. Trikotaj detallarini biriktirish va ularning ochiq qirqimlariga texnologik ishlov berish jarayonida turli baxya va baxyaqatorlar hosil qilishda ipli biriktirish usulidan foydalanildi.

12. Shaklbarqaror mahsulot ishlab chiqarishda charm qiyqimlaridan samarali foydalanish hamda detallar sonini kamaytirish maqsadida taklif etilayotgan to'n bichimidagi kardiganing yoqa qismi yaxlit modellashtirilgan va shu orqali texnologik jarayon ham kamayishi hisobiga 1 smenada 396.800 mablag' tejaldi hamda yillik ishlab chiqarishdan olingan samaradorlikning umumiy hisobi bo'yicha taklif etilgan "erkaklar to'n bichimidagi kardigan" ni ishlab chiqarishda 1 oyda 20 633 600 so'm samaradorlikka erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/04.10.2023.Т.174.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

АЗИМОВА САЁРАХОН ГУЛАМЖАНОВНА

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПО РАЗРАБОТКЕ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ
ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА МУЖСКОЙ ВЕРХНЕЙ ОДЕЖДЫ**

05.06.04 - Технология швейных изделий и дизайн костюма

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО-ТЕХНИЧЕСКИ НАУКАМ**

Наманган-2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.1.PhD/Т4490.

Диссертация выполнена в Наманганском институте текстильной промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен в веб-сайте Наманганского института текстильной промышленности (www.namtsi.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).


Научный руководитель:	Набиджанова Наргиза Насимжановна доктор технических наук, профессор
Официальные противники:	Пулатова Сабохат Усмановна доктор технических наук, профессор Арипджанова Дилафруз Уктамовна доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится “02” мая 2025 года в 15:30 часов на заседании при научном совете PhD.03/04.10.2023.Т.174.01 при Наманганском институте текстильной промышленности (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info@ntsi.uz, 1-здание Наманганского института текстильной промышленности, 1-этаж, зал совещаний)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского института текстильной промышленности (зарегистрирован под номером №39). (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04.)

Автореферат диссертации разослан “19” апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 36 от “06” января 2025 года).



**К.М.Холиков**
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

**Х.Т.Бобожанов**
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

**Ж.К.Юлдашев**
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии)

